

ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA MODDIY OQIMNI BOSHQARISHDA LOGISTIKA XIZMATINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-TASHKILY MEXANIZMI

Maxmidov Shirinboy Botirovich
TATU Samarqand filiali o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ishlab chiqarish korxonalarida moddiy oqimni boshqarishda logistika xizmatini rivojlantirish masalasi, jumladan ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan moddiy resurslarni yetkazib berishning usullari, “siljituvchi” va “tortuvchi” usullar, ulardan ishlab chiqarish korxonalarida moddiy oqimni boshqarishda foydalanishning o'ziga xos jihatlari, ishlab chiqarish korxonalarida moddiy resurslarni sexlararo harakati yoritilgan.

Kalit so'zlar: logistika va ta'minot zanjiri, moddiy oqim, logistika xizmati, ta'minot-xarid, ombor xo'jaligi, zaxiralar, transport, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatuvchi axborot va taqsimot.

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы развития логистических услуг в управлении материальными потоками на производственных предприятиях, в том числе методы доставки материальных ресурсов, используемых в производственном процессе, методы «выталкивания» и «вытягивания», особенности их использования в управлении материальными потоками на производственных предприятиях, межцеховое перемещение материальных ресурсов на производственных предприятиях.

Ключевые слова: логистика и цепочка поставок, материальный поток, логистические услуги, закупки, складирование, резервы, транспортировка, производственно-сервисная информация и распределение.

Abstract

This article discusses the development of logistics services in material flow management in manufacturing enterprises, including methods of delivering material resources used in the production process, “pushing” and “pulling” methods, specific aspects of their use in material flow management in manufacturing enterprises, and inter-departmental movement of material resources in manufacturing enterprises.

Keywords: logistics and supply chain, material flow, logistics service, procurement, warehousing, reserves, transportation, production-serving information and distribution.

KIRISH

Globalashuv sharoitida ishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligini ta'minlashda logistika xizmatining o'rni tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, moddiy oqimlarni samarali boshqarish, resurslardan oqilona foydalanish, tashish va saqlash xarajatlarini kamaytirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlashda muhim omil sifatida qaralmoqda. Jahon bozoridagi tezkor o'zgarishlar, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi hamda ta'minot zanjirlaridagi o'zgarishlar

logistika xizmatlarining yanada samarali va moslashuvchan bo'lishini taqozo qilmoqda.

Yangi O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ham bu yo'nalish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatda mahalliy xomashyolarni qayta ishlash, ishlab chiqarish sanoatini modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish va mahalliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Bu borada "O'zbekiston-2030" strategiyasida "Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish" maqsadi belgilangan [1]. Ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirishda korxonalarda moddiy oqimlarni samarali boshqarishga qaratilgan iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish alohida o'rin tutadi. Lekin ko'plab ishlab chiqarish korxonalarida logistika xizmati hali to'laqonli shakllanmagan yoki zamonaviy talablarga javob bermaydi. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarish korxonalarida logistika xizmatini rivojlantirishning iqtisodiy-tashkiliy mexanizmini puxta tashkil etish orqali moddiy resurslar harakatini samarali tashkil etish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hamda mahsulot yetkazib berish muddatlarini qisqartirish imkonini beradi. Shu sababli, Yangi O'zbekistonda ishlab chiqarish korxonalarida logistika xizmatini rivojlantirish, ushbu sohani chuqur o'rganish, tahlil qilish va samarali mexanizmlarni ishlab chiqarish nihoyatda muhim vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy mutaxassislar tomonidan logistika va ta'minot zanjiri boshqaruvining nazariy asoslari chuqur o'rganilgan. Martin Kristofer (2016) tomonidan moddiy oqimlarni boshqarishda tizimli yondashuvni taklif etgan. Martin Kristofer tadqiqotlarida asosiy e'tibor xarajatlarni kamaytirish, ombor boshqaruvi, xaridlar va transport tizimining o'zaro integratsiyasiga qaratilgan [7].

Ballou o'z ilmiy tadqiqotlarida logistika tizimining klassik modellari, iqtisodiy samaradorligi va ularni amalga oshirish mexanizmlarini tadqiq qilgan. Ballou o'z tadqiqotlarida moddiy oqimlarning rejalashtirilishi, prognozlash va baholash usullariga alohida e'tibor qaratgan. Ballou tadqiqotlari ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiy-tashkiliy qarorlar qabul qilishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi [4].

Alan Rushton, Fil Croucher va Piter Beyker (2010) tadqiqotlarida ishlab chiqarish korxonalarida logistika xizmatlarini tashkil etish va boshqarish tashkiliy tuzilmaga bog'liq ekanligi ta'kidlashadi. Ularning fikricha ishlab chiqarish korxonasining ichki bo'limlari o'rtasidagi aniq taqsimlangan vazifalar va mas'uliyatlar logistika xizmati samaradorligini oshirishda asosiy omil bo'lib hisoblanadi [2].

K.Oliver va M.Webber moddiy resurslar harakatini tashkil etishda biznesni boshqarishning integral instrumenti sifatida biznes-logistika konsepsiyasini shakllantirgan, shuningdek, taqsimlash kanallarida marketing va logistikaning funksiyalarida sezilarli prinsipial farqlar bo'lishini ko'rsatib bergan [5].

Ishlab chiqarish korxonalarida moddiy oqimni boshqarish bir-biri bilan bog'liq bo'lgan ta'minot-xarid, ombor xo'jaligi, zaxiralar, transport, ishlab chiqarishga xizmat

ko'rsatuvchi axborot va taqsimot kabilar bilan bevosita bog'liq. Shuning uchun ishlab chiqarish korxonalarida moddiy oqimlarni boshqarishda logistika xizmatini rivojlantirishning iqtisodiy-tashkiliy mexanizmida ta'minot-xarid, ombor xo'jaligi, zaxiralar, transport, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatuvchi axborot va taqsimot kabilarni hisobga olish lozim.


METODOLOGIYA

Ishlab chiqarish korxonalarida moddiy oqimni boshqarishda logistika xizmatini rivojlantirishning iqtisodiy-tashkiliy mexanizmi mavzusidagi maqolani yozishda moddiy resurslarni yetkazib berishning siljituvchi va tortuvchi usullari tizimli yondashuv metodi orqali tadqiq qilingan. Ishlab chiqarish korxonalarida moddiy resurslarni yetkazib berish jarayoni bilan bog'liq jihatlar tizimli tahlil, matematik ifoda, analiz va sintez usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan moddiy resurslarni yetkazib berishning bir nechta variantlari mavjud. Hozirgi zamon ishlab chiqarishda moddiy resurslarni yetkazib berishning bir nechta variantlari ishlatiladi. Ular orasida bir-biridan keskin farq qiluvchi ikki variantni ko'rsatish mumkin.

Birinchi variant. "Siljituvchi tizim" deb nomlanadi. Bu tizimda ishlab chiqarish shunday tashkil qilinadi. Moddiy resurslar logistik tizimning keyingi bo'g'iniga, undan oldingi bo'g'in tomonidan ishlab chiqarish korxonasi markaziy (yuqori) boshqaruv organi topshirig'iga asosan yetkazib beriladi. Bunda moddiy resurslar ishlab chiqarish texnologik zanjirining oldingi bo'g'inidan keyingi bo'g'inga siljiriladi. Bu variantda har bir yetkazib berish operatsiyasi uchun oldindan yetkazib berish vaqti belgilanadi. Har bir yetkazib berilgan moddiy resurs keyingi bo'g'in uchun tugallanmagan ishlab chiqarish zaxirasini tashkil qiladi. Bunday holda tugallanmagan ishlab chiqarish zaxirasi ko'payib boraveradi. Tugallanmagan ishlab chiqarish zaxirasining ko'payishi korxonaga uchun salbiy holat hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Ishlab chiqarish korxonalarida moddiy resurslarni yetkazib berishning siljituvchi tizimi.¹


Pastga yo'naltirilgan strelkalar korxonaga boshqaruvi tomonidan har bir bo'lim va sexga berilgan topshiriqlarni, yuqoriga yo'naltirilgan strelkalar esa topshiriqlarning bajarilish holatini ifodalaydi.

¹ Muallif ishlanmasi

Gorizontal strelkalar oldingi bo‘g‘indan keyingi bo‘g‘inga moddiy resurslarning yetkazib berilishini ifodalaydi.

Moddiy oqimlarni boshqarishni bu modeli ishlab chiqarish an’anaviy usullarda tashkil etiladigan korxonalar va firmalar faoliyatiga xosdir.

Moddiy oqimlarni boshqarishning ikkinchi varianti “tortuvchi tizim” deb ataladi. Bu tizimda ishlab chiqarish jarayoni va uning logistikasi shunday tashkil etilganki, bunda xom ashyo, detallar, butlovchi qismlar, yarim tayyor mahsulotlar, logistik zanjirning keyingi bo‘g‘iniga avvalgilaridan buyurtmaga asosan, kerakli miqdorda va zarur muddatda berishga asoslangan. Bu usulda moddiy resurslarni oldingi bo‘g‘indan keyingi bo‘g‘inga yetkazib berishning vaqti qat’iy belgilanmaydi, ya’ni yetkazib berish jadvali amal qilmaydi. Keyingi bo‘g‘in tomonidan oldingi bo‘g‘inga buyurtma berish zaxiralar darajasi kritik nuqtaga yetganda amalga oshiriladi. Tortuvchi usul har bir keyingi bo‘g‘inning texnologik operatsiyani bajarishga tayyor paytida oldingi bo‘g‘indan moddiy resursni talab qilib olishiga asoslanadi. Bunda markaziy boshqaruv organi korxonada turli ishlab chiqarish sexlari va bo‘limlarining moddiy resurslarni yetkazib berishga doir qarorlar qabul qilish va boshqa ishlariga aralashmaydi, ular uchun joriy ishlab chiqarish topshiriqlarini belgilamaydi. Logistik zanjirdagi har bir bo‘g‘inning ishlab chiqarish dasturi (hajmi, vaqti, miqdori) undan keyingi bo‘g‘in buyurtmasiga asosan aniqlanadi. Bu holda boshqaruvning markaziy yoki eng yuqori organi topshiriqni ishlab chiqarish texnologik zanjirining eng so‘nggi bo‘g‘iniga beradi. Eng so‘nggi bo‘g‘in ya’ni yig‘uv sexi berilgan topshiriqni bajarish uchun talab qilinadigan miqdordagi detallar, qismlar, yarim tayyor mahsulotlar va komplektlash jihozlariga bo‘lgan buyurtmani o‘zidan oldingi texnologik bo‘g‘inga yoki bo‘g‘inlarga beradi va hokazo. Ya’ni logistik zanjirdagi keyingi bo‘g‘in harakatlantiruvchi kuch sifatida o‘zidan oldingi bo‘g‘inni tortadi yoki yetaklaydi (2-rasm).



2-rasm. Moddiy resurslarni yetkazib berishning tortuvchi tizimi.¹

Yoysimon strelkalar keyingi bo‘g‘inning buyurtmasini, pastga yo‘naltirilgan strelka ishlab chiqarish topshirig‘ini, gorizontal strelkalar oldingi bo‘g‘indan keyingi bo‘g‘inga moddiy resurslarning yetkazib berilishini ifodalaydi.

Ushbu tizimda moddiy resurslarni yetkazib berish quyidagicha amalga oshiriladi. Korxonada 10 birlik tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun buyurtma olsun. Bu buyurtmaga asosan korxonada boshqaruv yig‘uv sexiga ishlab chiqarish topshirig‘ini

¹¹ Muallif ishlanmasi

beradi. Yigʻuv sexi topshiriqni bajarish maqsadida NA_1, \dots, NA_n sexlarga 10 donadan A_1, \dots, A_n detal berish uchun buyurtma beradi. NA_1, \dots, NA_n sexlar 10 donadan detalni yigʻuv sexiga berib, oʻz zaxirasini meʼyor darajasida toʻldirish uchun logistik zanjirda oʻzidan oldinda turgan NB_1, \dots, NB_m sexlarga 10 donadan B_1, \dots, B_m andozaga buyurtma beradi. Oʻz navbatida NB_1, \dots, NB_m sexlar 10 donadan andozani NA_1, \dots, NA_n sexlarga berib, zaxiralarini berilgan andozalar miqdori darajasida toʻldirish uchun xom ashyo omboriga xom ashyo uchun buyurtma beradi.

Shunday qilib, moddiy oqim keyingi boʻgʻin tomonidan «tortiladi». Ishlab chiqarish logistik tizimlarida moddiy oqimlarni boshqarishning bunday variantidan, foydalanganda boshqaruvning yuqori organlari quyi boʻgʻinlar ishiga behuda aralashib, ularga xalaqit qilmaydi. Sex va boʻlimlardagi xodimlar sex va ish joyidagi holatni rahbarlarga nisbatan yaxshi bilganliklari sababli ishlab chiqarish jarayonidagi muammoli vaziyatlarni tezkorlik bilan va sifatli bartaraf qilish imkoniyatlariga ega boʻladilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ishlab chiqarish biznesida muvaffaqiyatga erishayotgan koʻplab chet el korxonalari moddiy resurslarni yetkazib berishni boshqarishda tamoman yangi falsafaga asoslangan logistik konsepsiyalardan foydalanmoqda. Bu konsepsiyalarga JIT (just in time) “oʻz vaqtida”, MRP (material requirements planning) moddiy resurslarni rejalashtirish va MRP II (manufacturing resource planning) ishlab chiqarish resurslarini rejalashtirish konsepsiyalari kiradi. JIT konsepsiyasining mohiyati shundan iboratki, ishlab chiqarishning uzluksiz jarayonida xom ashyo, materiallar va boshqa komponentlar oʻz ishlatilish joyiga ularga ehtiyoj tugʻilgan paytdagina yetkazib beriladi. Bu konsepsiyaning maqsadi faqat kerakli boʻlgan xom ashyo, material, yoki detallarning yetarli miqdorini oʻz vaqtida, kerakli ish yoki isteʼmol joyiga yetkazishdan iborat.

Faoliyat koʻrsatayotgan mikrologistik tizimlar mazkur konsepsiyaga asoslanib yaratilgan va ular quyidagi asosiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- xom ashyo, moddiy resurslar, tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlar zaxiralarining minimalligi;
- ishlab chiqarish (logistik) sikllarining qisqaligi;
- tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmining va toʻldiriladigan zaxiralar miqdorining kichikligi;
- logistik hamkorlarning yetkazib berish jarayonida sifat, miqdor va vaqt mezonlariga qatʼiy rioya qilishligi ular sonining va joylashishining optimalligi.

Ishlab chiqarish logistik tizimining qisqa sikli xom ashyo, materiallar, detallar, komponentlar, yarim tayyor mahsulotlarni yetkazib beruvchi logistik boʻgʻinlarning yigʻuv sexi yaqinida joylashishini taqozo etadi. Korxonalar oz sonli, lekin yuqori darajada ishonchli boʻlgan yetkazib beruvchilarni tanlab, ular bilan hamkorlik qilishga intilishi lozim. Chunki, yetkazib berishdagi har qanday uzilishlar ishlab chiqarish grafigining buzilishiga olib kelishi mumkin. Yetkazib beruvchilarning ishonchliligiga boʻlgan

e'tiborning kattaligini shu misoldan ham bilsa bo'ladiki, faqatgina ushbu omilning ta'siri natijasida AQSh va Yevropadagi ishlab chiqaruvchi ko'pgina korxonalar "O'z vaqtida" konsepsiyasini yaponlarga nisbatan 10-15 yil keyin qo'llay oldilar. Buning asosiy sababi ushbu mamlakatlarda mahsulot yetkazib beruvchilar bilan munosabatlar va olib boriladigan ishlar JIT konsepsiyasi talablari darajasida tashkil qilinmagan edi. Bu konsepsiyaga muvofiq mahsulot yetkazib beruvchilar ishlab chiqaruvchilarning biznes faoliyatidagi hamkorlariga aylanishlari shart va zarurdir.

Ishlab chiqarish korxonalarida moddiy oqimni boshqarishda logistika xizmatini rivojlantirishning iqtisodiy-tashkiliy mexanizmini takomillashtirishda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir:

1. Logistika xizmatini ishlab chiqarish korxonasining barcha bo'limlari bilan integratsiya qilish. Logistika xizmatini mustaqil funksional bo'lim sifatida ishlab chiqarish korxonalarini tashkiliy tuzilmasiga kiritish lozim. Logistika bo'limini ishlab chiqarishni rejalashtirish, xarid qilish, transport va ombor faoliyatlarini muvofiqlashtiruvchi markazga aylantirish hamda malakali kadrlarni jalb qilish.

2. Ishlab chiqarish korxonalarida moddiy oqim harakatini raqamlashtirish va avtomatlashtirish. Logistika jarayonlariga zamonaviy axborot tizimlarini ERP, SCM va WMS kabilarni joriy etish. Ombor boshqaruvi, transport harakati, zaxiralarni real rejimda nazorat qiluvchi texnologiyalarni tatbiq etish, ichki va tashqi moddiy oqimlar bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish.

3. Hududiy yoki tarmoqlararo ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasida "kooperatsion logistika" tarmog'ini yo'lga qo'yish. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar o'rtasida umumiy ombor, birgalikda tashish tizimlarini shakllantirish.

4. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalanish. Mavjud logistika infratuzilma va tashqi savdoga oid imtiyozlardan faol foydalanish, erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) va logistika markazlaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabr PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-6600413>.

2. Alan Rushton, Phil Croucher and Peter Baker. The Handbook of Logistics Distribution Management. The Chartered Institute of Logistics and Transport (UK). London. Kogan Page. 2010. 655 pp.

3. Ardito L. et al. Towards Industry 4.0: Mapping digital technologies for supply chain management/marketing integration // Business Process Management Journal. — 2018 — Vol. 25. — C.11-18.

4. Ballou R.H. (2004) Business Logistics/Supply Chain Management: Planning, Organizing and Controlling the Supply chain. 5th Edition, Pearson/Prentice Hall Inc., New Jersey.

5. K.Oliver & M.Webber "Supply chain Management": logistics catches up with strategy//Christohee m/logistics. The Strategic Jssesus L: Chapman and Hall, 1982. P. 63-75

6. Langley C.J. The Evolution of the Logistics Concept// journal of Business logistics, 1979. №2, vol 7.
7. M.Christopher. Logistics & Supply Chain Management. 5th Edition. Pearson. London. 2016. 289 pp.
8. Yu Gu., Shaojian Dong. Logistics Cost Management from the Supply Chain Perspective. Journal of Service Science and Management. Vol.9 No.3, June 2016



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, iyul, 7-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOST 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**